

**Og'iz bo'shlig'i topografiyası**

***G'ofurova Visola***

*Stomatologiya fakulteti 306-B TDSI*

*Ilmiy rahbar: Gadaev Asliddin*

**Annotatsiya.** Umumiy tavsif. Og'iz bo'shlig'i chegaralari. Og'iz dahlizi va xususiy og'iz bo'shlig'i topografiyalari. Tanglay va til topografiyası va qismlari.

**Kalit so'zlar.** Og'iz bo'shlig'i, og'iz yorig'i, lablar, og'iz dahlisi, xususiy og'iz bo'shlig'i, tanglay, tanglay murtagi, til.

Og'iz sohasi yuqoridan burun to'sig'i asosidan o'tkazilgan chiziq, pastdan – engak usti burmasidan o'tkazilgan gorizontal chiziq, yon tomondan burun-lab burmalari bilan chegaralanadi. Og'iz sohasiga og'iz bo'shlig'i va lab sohasini hosil qiluvchi og'iz teshigi atrofi kiradi.

Og'iz yorig'i (rima oris) pastki va yuqori lablar bilan chegaralangan. Ular og'iz burchagi sohasida lablar birlashmasini hosil qiladi (comissura labiorum).

Lablar terisi yupqa bo'lib, ter va yog' bezlari saqlaydi. Erkaklarda soqol va mo'ylov bilan qoplangan yuzaki fassiya tolali biriktiruvchi to'qimadan tashkil topgan bo'lib, teri va mushaklarni qoplab turadi. Lablar mushagi mimika mushaklarga kirib, teriga o'tib ketadi. Og'iz aylanma mushagi sirkulyar joylashgan bo'lib, uning bir qismi labni siquvchi mushak-*m.compressor labii* (Kleyn mushagi) deyiladi. Ular labni yaqinlashtiradi. Lablarni yuz arteriyasi qon bilan ta'minlaydi. U og'iz burchagiga kelib yuqori va pastki lab arteriyasiga bo'linadi. Labning venoz qoni yuz venasiga yig'iladi. Bu vena burun –lab burmasidan o'tib, ko'z kosasi venasi bilan anastamoz hosil qiladi.

Og'iz bo'shlig'i (cavitas oris): og'iz dahlizi (vestibulum oris) va xususiy og'iz bo'shlig'iga (cavitas oris propria) bo'linadi. Og'iz dahlizi oldindan lablar va lunj , orqadan yopilgan holatda tishlar va alveolyar o'simtalar orqali chegaralanib turadi. Xususiy og'iz bo'shlig'i chegarasi: yuqoridan yumshoq va qattiq tanglay, old

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

va yon tomondan tishlar tishlar va milk, pastdan og'iz diafragmasi bilan chegaralangan. Orqadan esa esnash teshigi orqali og'iz-halqumga ochiladi.

Og'iz dahlizi taqasimon shakldagi yoriqsimon bo'shliq hisoblanib u tashqaridan lunj, yuqori va pastkli lablar bilan, orqa va yondan tishlar va milk hamda alveolyar o'siqlarni qoplovchi shilliq parda bilan chegaralangan. Tishlar yopishgan holatda og'iz tishlar bilan lunj shilliq pardasi oralig'ida xususiy og'iz bo'shlig'i bilan tutashadi.

Xususiy og'iz bo'shlig'i oldindan va yondan tishlar va milk bilan, yuqoridan tanglay, pastdan og'iz bo'shlig'i tubi va til bilan chegaralanib, orqadan og'iz-halqumga ochiladi.

Tanglay 2 qismdan iborat. Uning oldingi uchdan ikki qismi asosi suyak bo'lib, qattiq tanglay deyiladi. Uni yuqori jag'ning tanglay o'sig'i va tanglay suyagining gorizontal plastinkasi hosil qiladi. Tanglayning orqa uchdan bir qismi mushak-fibroz asosdan tashkil topgan bo'lib, yumshoq tanglay deyiladi. Tanglay markazida tanglay o'rta choki (raphe palati) bo'lib bu oldingi qismida ko'ndalang egatlar hosil qiladi. Yumshoq tanglay old tomondan qattiq tanglayning orqa qirrasiga birikkan bo'lsa, orqa tomondan esa erkin holda joylashgan tilchani (uvula) hosil qiladi. Yumshoq tanglay yon tomonlardan tanglay ravoqlariga o'tadi. Oldingisi *arcus palatoglossus* tilning yon yuzasiga yo'nalsa, orqadagisi *arcus palatopharyngeus* halqumning yon devoriga tomon yo'naladi. Oldingi va orqa ravoqlar oralig'ida chuqurlik mavjud bo'lib, uni tanglay murtaklari to'ldirib turadi. U limfold tuzilmadan iborat bo'lib, yuz arteriyasi tanglay murtagiga yaqin joylashadi. Shu tufayli tonzilloektomiyalarda bu arteriya jarohatlanishi mumkin. Yuqori jag' arteriyasidan chiquvchi tushuvchi tanglay arteriyasi (*a.palatina descendens*) katta va kichik tanglay teshiklari orqali qanot-tanglay chuqurchasidan o'tib, qattiq va yumshoq tanglayni qon bilan ta'minlaydi. Qattiq va yumshoq tanglay, tanglay murtagi IX va X juft bosh miya nervlari va truncus sympatheticus qo'shilishidan hosil bo'lган *plexus pharyngeus* orqali innervatsiyalanadi.

Til mushakli a'zo bo'lib, limfold hosilalar va bezchalarga boy shilliq qavat bilan qoplangan. Tilning ildiz, tana va uchki qismi tafovut qilinadi. Tilda ikkita

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

yuza mavjud: yuqori-til orqasi(*dorsum lingua*), pastki yuza (*facies inferior lingua*) orqali ajralib turadi. Til mushaklari 2ga ajraladi: skelet va xususiy.

Skelet mushaklari: Iyak-til osti mushagi(*m.genioglossus*), bigizsimon-til mushagi(*m.styloglossus*), til osti-til mushagi(*m.hyoglossus*), tanglay-til mushagi(*m.palatoglossus*).

Xususiy mushaklari: Tilning yuqori bo'ylama mushaklari(*m.longitudinalis superior*),pastki bo'ylama mushak (*m.longitudinalis inferior*),tilning ko'ndalang mushagi(*m.transversalis linguae*),tilning vertikal mushagi (*m.verticalis linguae*).

Tilda 4xil so'rg'ichlar farqlanadi: ipsimon(*papillae filiformes*), zamburug'simon(*papilla fungiformes*), tarnovsimon (*papilla vallate*), va bargsimon(*papilla foliatae*).

**Xulosa:** Ushbu maqolani yozishda xulosa qilib shuni aytamanki, og'iz bo'shlig'i inson hayotidagi eng muhim a'zolardan biri hisoblanib, uni har qanday tibbiyat hodimi yaxshi bilib olishi zarur. Ishonamanki ushbu maqolam har bir mutolaa qiluvchi uchun manfaatli bo'ladi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1.Sh.J.Teshayev,S.X.Nazarov, M.CH.Boyqulov,N.E.To'xsanova“Operativ jarrohlik va topografik anatomiya”(tibbiyat institutlari talabalari uchun darslik).Buxoro-2010.

2.N.X.Shomirzayev, S.X.Nazarov, R.D.Usmonov “Topografik anatomiya”(tibbiyat oliy o'quv yurtlari uchun talabalari uchun darslik).Toshkent-2004.

3.Sh.J.Teshayev, E.A.Xaribova “Odam anatomiysi” atlas, II tom, (splanxtologiya va yuraq qon tomir tizimi)Toshkent-2020.”BiTuBi Grupp” nashriyoti.